

Yuldashev Bexzod Sodiqovich



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti (2017-yil 10-yanvardan - hozirgi vaqtga qadar)

Fizika sohasi olimi, fan tashkilotchisi va jamoat arbobi.

O'zSSR Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati (1983 y.)

Amerika fiziklari jamiyati a'zosi, Indiana universiteti, Vashington universiteti (AQSh) va Kembridj universitetlari (Buyuk Britaniya) faxriy professori (fellow), Islom dunyosi akademiyasi (IAS) akademigi, Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti (BYTI, Dubna shahri, Rossiya) faxriy doktori.

Xalqaro ESO mukofoti laureati (2004 y.)

1945-yil 9-mayda Toshkent shahrida tug'ilgan.

1968-yilda Toshkent Davlat univesiteti va Moskva Davlat univesitetini yadro fizikasi mutaxassisligi bo'yicha a'lo baholar bilan tamomlagan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akdaemiyasi haqiqiy a'zosi - akademik (2000 y.), fizika-matematika fanlari doktori (1981 y.), professor (1987 y.), fizika-matematika fanlari nomzodi (1971 y.).

1990-2006 - yillarda va 2017-yildan bugunga qadar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akdaemiyasi Yadro fizikasi instituti direktori.

Birlashgan yadro tadqiqotlari institutida katta ilmiy xodim, Fizika-texnika institutida laboratoriya mudiri, Yadro fizikasi instituti direktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akdaemiyasi prezidenti (2000-2005 yy.), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatori, Xalqaro atom energiyasi agentligida (Vena sh., Avstriya) fan bo'yicha maslahatchi, Vashington universiteti, Stenford universiteti (AQSh) va Birlashgan yadro tadqiqotlari institutida taklif etilgan professor lavozimlarida ishlagan. Milliy tezlatgichlar laboratoriyasi Fermilab (AQSh) va Triumf (Vankuver, Kanada) laboratoriyalari tezlatgichlarida xalqaro tadqiqotchilar guruhi tomonidan bajarilgan ikkita eksperimentlarga ilmiy rahbarlik qilgan. Yevropa yadro tadqiqotlari markazining (CERN, Jeneva, Shveysariya) Katta adron kollayderida (Large Hadron Collider) o'tkaziladigan eksperimentlarda ishtirok etadi. Yadroviy xavfsizlikni mustahkamlash va yadro qurollarini tarqatmaslik bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish yuzasidan yirik loyihalarga rahbarlik qilgan.

Asosiy ilmiy-tashkiliy faoliyati elementar zarralar fizikasi, yadro fizikasi, sanoat, qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohalarida yadro texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalarni qamrab oladi.

300 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, 3 ta monografiya va 20 ta ixtiro muallifi.

Ilmiy rahbarligida 8 fan doktori va 30 ga yaqin fan nomzodlari tayyorlangan.

«Mehnat shuhrati» Ordeni bilan mukofotlangan (2003 y.).